
“Devonu lug‘oti-t-turk” – turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi”mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman

Jahon tamadduni tarixida ko‘plab nodir va bebaho yodgorliklar borki, ular nafaqat bir millat, balki butun insoniyat uchun ham beqiyos ma’rifiy va madaniy ahamiyat kasb etadi. Ana shunday noyob yodgorliklardan biri XI asrda yaratilgan – Mahmud Koshg‘ariy qalamiga mansub “Devonu lug‘oti-t-turk” (“Turkiy so‘zlar to‘plami”) asaridir.

Ushbu asarning yaratilganiga milodiy yil hisobida 950 yil to‘lishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyida “Devonu lug‘otit-turk” – turkiy xalqlarning noyob yozma yodgorligi” mavzusida Xalqaro andjuman o‘tkazildi.



Anjumanda ko‘rilgan ilmiy masalalar mazkur mumtoz bitikni turlicha aspektlarda o‘rganishga va shular asosida ilmiy tadqiqlar qilishga qaratilgan. Maqsad – “Devonu lug‘oti-t-turk” nafaqat o‘z yaratilgan davriga doir turkiy so‘zlarning lug‘ati, balki o‘z davrining muhtasham ilmiy va adabiy obidasi ekanligini yana bir karra ko‘rsatish, ilmiy jihatdan asoslashdir.

Anjuman ishida qirqdan ortiq ma’ruzalar qilindi. Undaakademik To‘ra Mirzayev, Ibrohim Yo‘ldoshev, Jabbor Eshonqulov, Hamidulla Boltaboyev, Boqijon To‘xiyev, Nasimxon Rahmonov, Qosimjon Sodiqov, Berdaq Yusuf, Burobiya Rajabova, Jo‘ra Xudoyberdiyev kabi o‘zbekistonlik olimlar bilan bir qatordalstanbul

Marmara univervesiteti professori Mustafo Kachalin, afg‘onistonlik Muhammad Halim Yorqin, Istanbul universitetidan Emek Ushenmez, tojikistonlik Nurullo Murodiy, xitoylik tadqiqotchi Dang Shi, Ozarboyjondan Po‘lat Zeynalov kabi olimlar hamo‘z ma’ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Bunday ilmiy izlanishlar orasida o‘zbekistonlik yosh olim va tadqiqotchilar ham 20 dan ortiq ma’ruzalar bilan qatnashdi. Ular ham ushbu asarni ustoz olimlar qatori ham lingvistik, ham adabiy, ham tarixiy va madaniy areal bo‘yicha qiyosan o‘rganishga kirishganlar. Ta’kidlash zarurki, anjuman materiallari turli mavzularda bo‘lishi bilan birga turli xil saviyadadir. Har bir tadqiqotchi “Devon”ga o‘z ilmiy nuqtai nazari va mavzuiy yo‘nalishi bo‘yicha yondashgan. Shuning uchun ularning saviyasini ham birdek deb bo‘lmaydi. Biroq bunga qaramay, ushbu ilmiy anjuman “Devonu lug‘oti-t-turk” asarini o‘rganish bo‘yicha yangi ufqlarni ko‘rsatuvchi va kelgusidagi tadqiqotlar uchun munosib ilmiy manba bo‘lib qoladi.



